

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№4

2025
APREL




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE


Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ





*Elektron nashr,
721 sahifa, aprel, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modelashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

08.00.01 - Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 - Makroiqtisodiyot
08.00.03 - Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 - Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 - Ekonometrika va statistika
08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 - Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 - Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 - Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 - Marketing
08.00.12 - Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 - Menejment
08.00.14 - Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 - Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 - Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 - Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan
"Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan
milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha
"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

M u a s s i s: "Tadbirkor va ishbiarmon" MChJ

H a m k o r l a r i m i z:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari.....	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar.....	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi.....	37
Qodirov Iskandar Alisher o'g'li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения.....	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqli sug'orish tizimlarining ahamiyati.....	62
Abdullayev.A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari.....	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture.....	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности.....	78
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности.....	97
Маликов Аuezхан Жорабекович	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili.....	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	
O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi.....	114
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo'llari.....	123
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich	
Yangi o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari.....	132
Tojiyev Javlonbek Rustamovich	



Mulkchilik shakliga ko'ra tijorat banklarida depozitlarining amaldagi holati tahlili	138
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati	151
Karimjonov Muhammadrasul To'liqinjon o'g'li	
Mustaqil direktorlar ulushi, nomoliyaviy axborotlarning oshkor qilinishi va dividend siyosatining kapital qiymatga kompleks ta'siri	159
Urinov Bobur Nasilloevich	
Turizm orqali ish o'rinlarini yaratish va bandlik muammosini kamaytirish imkoniyatlari	167
Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	
Kam quvvatli gidroelektr stansiya uchun mos bo'lgan invertor, reduktor, akkumulyator va generatorni tanlash	173
Xamrayev Og'abek Oybek o'g'li, Davletov I.Y.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	182
Ibragimova Gulnoza Sayidmuradovna	
Terminologiya va ilmiy terminologiya xususida	188
Ruziyeva Gulnoz Temirqulovna	
O'zbekiston Respublikasida innovatsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish yo'llari	192
Ramazonov Javohir Bekzod o'g'li	
Bazalt chiqindi toshqol asosidagi kam suv talabchan sementlarning samaradorligini oshirish	197
Babayev Sultonbek Sunnat o'g'li	
Qashqadaryo qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligini turli yondashuv asosida baholash	203
Omonova Sitara Zafar qizi, Utayev Sobir Achilovich	
Tilshunoslikning mexanika muhandisligi terminlari xususida	208
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
"Chizma geometriya va perspektiva" fanining arxitektura bilimlari tizimidagi roli	213
Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li	
Geodezik plan olishning avtomatlashgan usullari	219
Mamajonova Nodira Alisher qizi	
Zamonaviy arxitektura interyer dizaynida milliy grixva islomiy naqshlar uyg'unligi	225
Qo'chqarov Baxodir O'lmasovich	
Qurilishda mehnat unumdorligini oshirish va uni prognozlashning nazariy asoslari	230
Abduvaliyev Bekzod Muhiddin o'g'li	
Qishloq aholi hududlaridagi zamonaviy innovatsion o'zgarishlarining o'rta ta'lim maktablari tuzilishidagi ta'siri	235
Abdurahmonov Olimjon Obboqul o'g'li	
Seysmik hududlarda qurilish konstruksiyalarini to'g'ri tanlash	241
Egamberdiyeva Shaxnoza Abdurashidovna	
Arixiy yodgorliklarning me'moriy-rejaviy, konstruktiv va badiiy bezak yechimlari	251
Sotvoldiyev Azamatjon Akramjon o'g'li	
Xitoy va O'zbekiston tajribasi asosida soliq to'lovchilar reytingi tizimi orqali fiskal intizomni mustahkamlash	255
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
Turizmga investitsiyalar iqtisodiyotimizga ijobiy ta'siri etuvchi omillari sifatida	268
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Tursunov Qosimbek Nodirovich	



Problems of determining the informativeness of input and output parameters in object management	275
Turapov Ulugbek Urazkulovich	
Tijorat banklari faoliyatiga foiz riskining ta'siri: ilmiy-nazariy asoslar va amaliyot tahlili	280
Turdiyev Abdulhakim Qulbazarovich	
Zamonaviy moy filtrlarining dvigatel ishlash resursini oshirishiga ta'siri.....	290
Mirzakarimov Rustambek Xusanboy o'g'li	
Qayta tiklanadigan energiya manbalari: zamonaviy global tendensiyalar va O'zbekiston uchun perspektivlar	295
Bozarov Elyor Boboqulovich, Rustamova Sarvinoz Azizbek qizi	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyaning ahamiyati.....	300
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
Strengthening and enhancing the export potential of industrial enterprises for sustainable growth.....	305
Researcher of Tashkent State University of Economics	
Davlat tashkilotlarining bitiruvchilarga bo'lgan ehtiyoji va talablari.....	310
Daminova Barno Esanovna, Bozorova Irina Jumanazarovna, Pardayeva Muqaddas Zafar qizi	
Erkin iqtisodiy hududlar soliq rejimlarini takomillashtirishning xorij tajribasi.....	320
Boltayev Jo'rabek Yusofovich	
Tabiiy va sun'iy tolalar sanoatini diversifikatsiya qilish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish.....	325
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B segmentida omnichannel marketing strategiyalarining qo'llanishi	331
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
O'zbekistonda kichik biznes faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	338
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	
Task mapping and job scheduling implications of fdi inflows and governance quality metrics	343
Nilufar Zikirullaeva Dilmurod qizi	
Yangi O'zbekiston savdo-iqtisodiy munosabatlari rivojlanishida xizmatlar eksportining ahamiyati	350
Eshanqulov Baxodir Abduraxmon o'g'li	
Budjet daromadlarini shakllantirishda yirik soliq to'lovchilarning tutgan o'rni	357
Tohirov Shuhrat Niyoz o'g'li	
Davlat maqsadli jamg'armalari resurslarini boshqarish va samarali foydalanish yo'nalishlari.....	361
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik subyektlari amaliy holati, sohani rivojlantirish asoslari	365
Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g'li	
Korxonalarda moliyaviy instrumentlarning hisobi va audit masalalari	371
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha zamonaviy tendensiyalar	375
Latipova Lola Ilhomovna	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish orqali soliq to'lovchilar faoliyatini muvofiqlashtirish	380
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklari likvidligini oshirishning nazariy asoslari	385
Poyonov Bobir Bekturod o'g'li	



The importance of implementing international accounting standards in uzbekistan	393
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Ikki o'lchovli geofizik signallarni raqamli ishlashda XAAR tez o'zgartirish algoritmlari.....	403
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich, Mullajonov Baxodirjon Arabboyevich	
Turizm infratuzilmasi va xizmat sifatini oshirish maqsadida yangi turistik yo'nalishlar va imkoniyatlar yaratish chora tadbirlari.....	410
Sindarov Sherzod Egamberdiyevich, Xakimov Zoxid Norbo'tayevich, Yusupov Muxammadali Soxib o'g'li, Ro'zimatov Sanjarbek Qosimjon o'g'li	
Korporativ boshqaruvda budjetdan tashqari mablag'lar samaradorligini oshirish	420
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
Enhancing labor productivity in industrial enterprises of developed countries: experiences and strategies	426
Abduxakimova Farangiz Sidikjon kizi	
Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali "Olmaliq KMK" ajda innovatsion loyihalarni boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari.....	434
Inamova Farida Usmanjanovna	
Methodological problems of accounting of fixed assets	439
Kholbekov Rasul Olimovich	
Необходимость платежной системы.....	446
Сайфиддинов Илхом Файзиддинович	
Зеленое ipro как новый инструмент финансирования	451
Шахзод Сайдуллаев	
Инструменты фондового рынка в международной практике повышения инвестиционной привлекательности бизнеса	459
Юлдуз Усманова	
Модели устойчивого развития туризма: международный опыт и возможности адаптации в узбекистане.....	471
Сальникова Елена Александровна	
Внедрение антикоррупционных стандартов iso в узбекистане	478
Исмаилов Баходир Исламович, Зокиров Саидакмал Баходир угли	
Global moliyaviy markazlarni baholash mexanizmi	483
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Трансформация банковского сектора узбекистана под влиянием цифровых технологий.....	488
Захарова Ирина Борисовна, Непейвода Андрей Николаевич	
Uy-joy fondini qulayligini modernizatsiya va rekonstruktsiya orqali oshirish imkoniyatlari.....	493
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
Влияние технологии блокчейн на банковскую сферу	500
Амонова Хафиза	
Buxoro viloyatida suv tanqisligi sharoitida resurs tejankor agrotexnologiyalar asosida agrobiznesni barqaror rivojlantirish masalalari	504
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich, Saidova Firuza Kamolovna	
O'zbekiston respublikasida demografik dividend olish imkoniyatlaridan oqilona foydalanish metodlari	510
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Budjet mablag'laridan foydalanish ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlari	515
Sharoxmatov Abdurahim Abdulamitovich	



Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga investitsiya jalb etish-taraqqiyot garovi.....	522
Karimova Komila Daniyarovna	
Islomiy banklar tizimi va ularning faoliyatini o'zbekistonda rivojlantirish istiqbollari.....	529
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
The use of media technologies in teaching russian language lessons	534
Khojaeva Kh.S.	
Davlat budjetini shakllantirishda soliqlarning o'rni.....	538
Yuldashev Javohirbek Ikromjon o'g'li	
Paxta-to'qimachilik klaster subyektlarida buxgalteriya hisobini takomillashtirishda elektron imzoning roli	543
B. Q. Madartov, G. R. Xolmurodova	
Разработка новых инновационных антикоррозионных решений для защиты стального оборудования нефтегазовой отрасли.....	547
Курбанова Фируза Солеховна, Очилов Абдурахим Абдурасулович, Саатов Санжар Каландарович	
Glitserin bikarbamat sintezi.....	552
Bafojev Abduhamid Hoshim o'g'li	
Respublikada tibbiy xizmatlarini raqamlashtirish asosida rivojlantirishning konseptual yo'nalishlari.....	558
Axmedov Zafarjon A'zamovich, Karabaev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Shamol turbinasi parraklarining burilish burchagini rostdashning amaliy ahamiyati	567
Muzaffarov Firdavs Fuzayl o'g'li, Rashidov Sherzod Kahramonovich, Hojimurodov Jasur Erkinovich	
Оценка комфортности городской среды в узбекистане на основе интегральных индикаторов коммунальной обеспеченности	573
Шатохина Светлана Юрьевна	
Avtotyuning tushunchasi, turlari va tasnifi	581
Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich, Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li	
"Yashil eksport" tushunchasining mohiyati va uni o'zbekiston iqtisodiyotiga joriy qilish imkoniyatlari.....	586
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	
Методология оценки влияния факторов, определяющих прямые иностранные инвестиции на экономическую безопасность страны	593
Глазова Марина Викторовна	
Yashil iqtisodiyot sharoitida soliqlarni raqamlashtirishni takomillashtirish	600
Jo'rayev Botir Abdiyevich	
Information exchange acceleration in emergency modes of intelligent control systems	607
Azizbek Yusupbekov Nodirbekovich, Husniddin Esonov Mamarasul o'g'li	
Ijro mexanizmlarini vizual simulyatsion modellash tirishning boshqaruv samaradorligini oshirishdagi ahamiyati	613
Karabayev Ibragim Turdiyevich, Esonov Husniddin Mamarasul o'g'li, Mamatqulov Toir Chorshanbiyevich	
Sement qorishmasi tarkibiga polivinilatsetat, akril emulsiyasi va suyuq shisha (natriy/silikat eritmalari)ni qo'shish orqali mustahkamlik darajasini oshirish	618
Imamov Suxrob Solexovich	
Инновационные технологии получения металлического индия из оборотных растворов цинкового завода (Алмалыкский ГМК).....	624
Абдиева Манзура Маткаримовна	



Analysis of the use of equipment for cleaning and preparing a lightweight drilling fluid	629
Xolmuxammadiyev Abduxoliq Mahammadi o'g'li, Toshev Sherzod Orziyevich	
Перспективы территориальной организации и развития пищевой промышленности в самаркандской области	635
Хамраев Казим	
Zamonaviy korxonalarda blokcheyn texnologiyalarining qo'llanilishi va ularning samaradorlikka ta'siri	645
Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li, To'g'onov Ibrohimxo'ja	
Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy injiniring asosida bank innovasiyalarini joriy etish jarayonini takomillashtirish	652
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
Yo'l qurilish tashkilotlarida oqilona moliyaviy strategiyalarni amalga oshirish	659
Raximov Dilshodjon	
"UZSUVTAMINOT" AJ tizimidagi korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (kpi) ni baholash uslublari	664
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich	
Xizmat ko'rsatish sohasida mulkni qayta baholash va unga yetkazilgan moddiy zararni aniqlashning vazifa va tamoyillari	668
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari faoliyatida biznesi ekotizimini tashkil etish yo'llari va prinsiplari	673
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash	679
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tikilayotgan brezent materiallari choklariga polimer qoplovchi uskunaning tarkibli roligi bikrligini aniqlash	684
Amonov Abdurahmon Rafiq, Muxamedjanov Mironshoh Mansurjon o'g'li	
Urban aglomeratsiyalar sharoitida yer osti inshootlariga ta'sir etuvchi geologik xavflarni kompleks baholash	688
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
Algorithm for optimizing repetitive tasks in production process execution mechanisms	694
Azizbek Yusupbekov Nodirbekovich, Husniddin Esonov Mamarasul o'g'li Assistant	
Методологический подход "дебют четырёх коней" в оценке финансового потенциала	702
Буранова Лола Вахобовна	
Tijorat banklari aktivlarining samaradorlik ko'rsatkichlari	714
Absamatov Anvar Ergashovich	

TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI

Absamatov Anvar Ergashovich

i.f.n., dotsent

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlarining samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash, ularning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan. Mavzuga oid ilmiy yondashuv asosida, bank aktivlarining samaradorligini oshirishda raqamli transformatsiya, innovatsion bank mahsulotlarini joriy etish va boshqaruv tizimini takomillashtirish omillari yoritilgan. Moliyaviy sektorda olib borilayotgan islohotlar, ushbu sohada raqobat muhitini mustahkamlash va ilg'or bank amaliyotlarini rivojlantirish uchun yaratilayotgan huquqiy asoslar ham tahlil etilgan. Maqolada mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha muallif takliflari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, aktivlar samaradorligi, raqamli transformatsiya, innovatsion bank, boshqaruv tizimi, bank strategiyasi, bank mahsulotlari, kreditlar, depozitlar, marja, foiz daromadlari, foizsiz daromadlar.

Abstract: This article analyzes the efficiency indicators of commercial banks' assets in the Republic of Uzbekistan and their role in fostering economic growth. The study highlights the impact of digital transformation, the introduction of innovative banking products, and the improvement of management structures in enhancing the efficiency of bank assets. The article also examines the ongoing reforms in the financial sector aimed at strengthening the competitive environment and creating a legal framework to support advanced banking practices. The author presents specific challenges and proposes recommendations to improve the effective utilization of commercial banks' assets.

Keywords: commercial banks, asset efficiency, digital transformation, innovative banking, management system, banking strategy, banking products, loans, deposits, margin, interest income, non-interest income.

Аннотация: В статье проведен анализ показателей эффективности активов коммерческих банков Республики Узбекистан и их влияния на ускорение экономического роста. Освещены ключевые аспекты цифровой трансформации, внедрения инновационных банковских продуктов и совершенствования систем управления для повышения рентабельности активов банков. Также рассмотрены реализуемые в финансовом секторе реформы, направленные на укрепление конкурентной среды и создание правовых условий для развития современных банковских практик. Представлены авторские подходы и предложения по решению выявленных проблем в эффективном использовании активов коммерческих банков.

Ключевые слова: коммерческий банк, эффективность активов, цифровая трансформация, инновационные банки, система управления, банковская стратегия, банковские продукты, кредиты, депозиты, маржа, процентные доходы, беспроцентные доходы.

KIRISH

Hozirgi globalizatsiya va integratsiya jarayonlarining jadallashuvi sharoitida milliy va xalqaro moliya bozorlarida keskin raqobat muhitining shakllanishi kuzatilmoqda. Bu esa tijorat banklari faoliyatini muntazam ravishda kompleks baholab borish, boshqaruv qarorlarini esa asosli va tahliliy



ma'lumotlarga tayangan holda qabul qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bunday vaziyatda bank menejerlari bank faoliyatining har bir yo'nalishidagi tendensiyalarni tizimli va chuqur tahlil qilishga majbur bo'lmoqda.

Tahlil jarayonida turli guruhlariga ajratilgan samaradorlik ko'rsatkichlari bank faoliyatini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarining aktivlar samaradorlik ko'rsatkichlarini shakllanishi va rivojlanishini o'rganish, ularni umumlashtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, ushbu ko'rsatkichlar bank aktivlarining miqdoriy va sifat jihatdan o'zgarish omillarini aniqlash imkonini beradi. Ularning tahlili asosida bank rahbariyati tomonidan aktivlarning joriy va istiqbolli holati baholanadi hamda ular bilan bog'liq boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Ikkinchidan, samaradorlik ko'rsatkichlari bank-moliya tizimining yuqori bosqichida faoliyat yurituvchi kredit-moliya institutlari uchun nazorat va baholash funksiyalarini amalga oshirishda zarur bo'lgan axborotni taqdim etadi.

Uchinchidan, mazkur ko'rsatkichlar bank tizimining investitsiyaviy salohiyatini baholashda muhim vosita bo'lib, bank moliyaviy ko'rsatkichlarining yaxshilanishi xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan taqdim etilayotgan barqaror kredit liniyalarini samarali o'zlashtirish imkonini oshiradi.

Bundan tashqari, miqdoriy ko'rsatkichlar bank aktivlarining tarkibiy o'zgarishlarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bank faoliyatining samaradorligini aniq va ishonchli baholash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida ham ushbu masalalar ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lib, unda "kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mu'tadil o'sishini ta'minlash, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish, xalqaro amaliy tajribaga ega bo'lgan menejerlarni jalb qilish hamda moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun ilg'or texnologik yechimlarni joriy etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash" maqsad qilingan [1].

Shuningdek, bank aktivlarining samaradorligini baholovchi sifat ko'rsatkichlari miqdoriy ko'rsatkichlar bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ular tashqi va ichki omillar ta'sirida dinamik ravishda o'zgarib turadi. Tijorat banklari amaliyotida esa aktivlar samaradorligini ifodalovchi qiyosiy ko'rsatkichlar yordamida bank faoliyatining muayyan davrga nisbatan natijalari tahlil qilinadi.

Bugungi kunda milliy va xalqaro moliya bozorlarida integratsiya jarayonlarining kuchayishi natijasida banklar aktivlari samaradorligini baholashda kompleks yondashuvga asoslangan integratsiyalashgan ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish va rivojlantirish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu integratsiyalashgan ko'rsatkichlar bank aktivlarining samaradorligini aniqlovchi omillarni chuqur va tizimli tahlil qilish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda koeffitsientlar usuli yordamida risk va noaniqlik sharoitlarida bank faoliyati moliyaviy natijalariga boshqaruv ta'sirini aniqlash hamda qator boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash dolzarb masalaga aylangan. Ta'kidlash joizki, ayrim iqtisodchi olimlar risk va beqarorlik sharoitida nisbiy ko'rsatkichlardan foydalanishni afzal biladi.

J.K. Van Xorn va J.M. Vaxovich fikriga ko'ra, rentabellik ko'rsatkichlari yakuniy natijalarni sof foydaga nisbatan to'laroq tavsiflaydi, chunki ular kiritilgan kapital yoki iste'mol qilingan resurslar bilan samaradorlikning nisbatini aks ettiradi. Ular tashkilot faoliyatini baholashda ham, investitsiya siyosatini shakllantirishda ham asosiy vosita sifatida qo'llaniladi. Rentabellik iqtisodiy toifa, baholashning natijaviy ko'rsatkichi bo'lib, turli moliyalashtirish manbai sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Natijaviy ko'rsatkich sifatida u mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini, biznes yuritish natijadorligini va faoliyat hajmining o'sishi yoki pasayishini aks ettiradi [2].

Masalan, O.N. Efimova va A.D. Sheremet "rentabellik", "daromadlilik", "samaradorlik", "foydalilik" tushunchalarini bir-biridan ajratmay, ularni soddalashtirib sinonim sifatida ishlatadi [3]. Valeriy va Vitaliy Kovalevlar esa foydalilikni biznesning "foyda olish", ya'ni moliyaviy natija — biznes muvaffaqiyatining dalolatidir, deb ta'riflaydi [4].

Yuqoridagi iqtisodchilar fikrlarini tahlil qilgan holda, tijorat banklari faoliyati natijadorligini baholashda asosiy ko'rsatkichlardan biri rentabellik ekani xulosa qilinadi. Rentabellik tijorat banklarining foydalilik darajasini tavsiflovchi ko'rsatkich bo'lib, odatda uning bir necha turi hisob-kitob qilinadi.

Tijorat banklari rentabellik darajasini tahlil qilish iqtisodiyotda keng o'rganilgan mavzulardan biri bo'lib, ushbu mavzu qanchalik chuqur o'rganilsa, amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan samarali takliflar shunchalik ko'paymoqda. Shu nuqtai nazardan, bank aktivlari daromadlilikini tahlil qilish usullarini o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Rentabellik va foyda ko'rsatkichlarini tahlil qilishda ularga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha omillarni aniqlash, bu omillarning samaradorlikning umumashtiruvchi ko'rsatkichlariga ta'sirini hisoblash metodologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, tarixda sarroflik idoralari to'plangan pul mablag'larini boshqa shaxslarga qarzga berish va olish amaliyotlarini boshlagan. Asta-sekin ssenariyda turli xil ssudalarni berish va pul mablag'larini jalb qilish hisobidan sarroflik faoliyati kengayib, kreditlar beruvchi, omonatlarni qabul qiluvchi va hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshiruvchi banklar vujudga kelgan. Moliya munosabatlarining bu tarzda rivojlanishi hozirgi banklar aktiv operatsiyalarining shakllanishiga asos bo'ldi [5].

Kredit samaradorligi masalasi xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy asosda tadqiq etilgan va tegishli ilmiy-nazariy xulosalar shakllantirilgan. Professor O.I. Lavrushin fikricha, kredit samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi mavjud bo'lib, ular orasida muammoli kreditlar va kreditlar daromadlilikini ifodalovchi ko'rsatkichlar muhim o'rin egallaydi [6].

Professor N.E. Soklinskayaning xulosasiga ko'ra, risklarni diqqat bilan kuzatish, sifatli kredit portfelini shakllantirish, kreditlash jarayonini boshqarish uchun ishonchli ma'lumotlar bazasiga ega bo'lish kredit sifati va mazmunini ta'minlashning asosiy jihatlari hisoblanadi [7].

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyalariga ko'ra, tijorat banklari kredit portfeli sifatini ta'minlashda kreditlardan ko'rilgan zararni qoplash uchun mo'ljallangan zahira ajratmalarining me'yoriy darajalarini saqlab turish va kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi [8].

Yuqorida qayd etilgan taniqli iqtisodchi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan xulosa qilish mumkinki, tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirishda kredit riski past va barqaror darajada bo'lishi, shuningdek, kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning barqarorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola tayyorlanishida me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet manbalari asosiy axborot manbalari sifatida qo'llanilgan. Tadqiqotda foydalanilgan manbalarning rasmiyligi va ishonchligi, shuningdek, iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy va tanqidiy tahlil qilindi.

Mavzuni o'rganish davomida umumiy iqtisodiy yondashuvlar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumashtirish, abstrakt-analitik va mantiqiy fikrlash, shuningdek, statistik tahlil usullaridan keng foydalanildi. Bunda ilmiy-nazariy asoslarni chuqurlashtirish, mavjud amaliyotda kuzatilayotgan tendensiyalarni aniqlash va ularni tahlil qilishda kompleks yondashuv qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Transformatsiya sharoitida har bir tijorat bankining maqbul faoliyat ko'rsatishi, bank tizimining turli iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarga moslasha olishi va raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini saqlab qolishi bevosita o'zaro bog'liqdir. Banklarda optimal aktivlar portfelini shakllantirishda, eng avvalo, aktiv operatsiyalar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash muhim ahamiyatga ega, chunki har bir aktiv operatsiya ma'lum ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi.

Tijorat banklari faoliyatida aktivlar samaradorligiga omillar ta'sirini muntazam ravishda o'rganish iqtisodiy zarurat sifatida yuzaga keladi. Bu boradagi asosiy jihatlar quyidagilardan iborat:



Birinchidan, yuqori daromad keltiruvchi aktivlar yuqori risk darajasiga ega bo'ladi. Bank tomonidan amalga oshirilgan har bir aktiv operatsiya mijozi faoliyatidagi o'zgarishlar ta'sirida sifat darajasini belgilab boradi.

Ikkinchidan, bank qonunchiligi va moliya bozoridagi o'zgarishlar bank tomonidan ishlab chiqilgan rivojlantirish strategiyasini joriy etish imkoniyatlarini pasaytirishi ehtimoli yuqoridir. Bunday holatda bank rahbariyatiga ichki va tashqi omillarning o'zgarishlari bo'yicha doimiy ravishda axborot taqdim etib borish zarur.


Uchinchidan, bank infratuzilmasini kengaytirish, yangi bank mahsulotlarini joriy etishdan oldin chuqur asoslangan omilli tahlil o'tkazilishi talab etiladi. Bunday tahlil bankni yirik moliyaviy yo'qotishlardan himoya qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, bugungi kunda ayrim tijorat banklarida aktivlar samaradorligiga omillar ta'sirini kompleks baholash bo'yicha quyidagi muammolar mavjudligi aniqlangan:

Jahon moliya bozorida yuzaga kelgan qat'iy lashuv sharoitlari tufayli tijorat banklari tomonidan tashqi mablag'larni jalb etish xarajatlari ortdi. Bu esa banklarning tashqi mablag'larni jalb etish sur'atini sekinlashtirdi va nerezidentlar oldidagi majburiyatlarini kamaytirib bormoqda.

Bundan tashqari, tijorat banklarining nerezidentlar oldidagi majburiyatlari hajmining pasayishiga 2023-yilda joylashtirilgan nerezident mablag'larining 1,2 milliard AQSh dollariga kamayishi ham sabab bo'lgan.

Natijada, 2024-yil 1-iyul holatiga tijorat banklarining yalpi tashqi majburiyatlarining yillik o'sish sur'ati 2023-yilning mos davriga nisbatan 16 foiz bandga pasaygan.



1-rasm. Bank tizimida aktivlar rentabelligi (ROA) ko'rsatkichining dekombinatsiyasi, %¹

Tijorat banklari aktivlar rentabelligi (ROA) shakllanishida sof foizli daromadlarning hissasi barqaror ravishda yuqori bo'lib qolmoqda. Jumladan, 2023-yil 1-iyul holatiga ushbu ko'rsatkichning jami aktivlardagi ulushi 4,8 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, bank aktivlari rentabelligining shakllanishida banklarning sof foizsiz daromadlari ham 5,4 foiz bandga oshiruvchi omil sifatida kuzatildi. Umuman olganda, sof foizli va foizsiz daromadlarning oshganligi, shuningdek, aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar uchun yaratilgan zahiralarning kamayganligi banklarning yuqori operatsion xarajatlarini qoplash imkonini berdi.

Natijada, aktivlar rentabelligi ko'rsatkichining umumiy darajasi deyarli o'zgarmagan holda shakllandi. Biroq sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsientida (NSFR) pasayish kuzatildi. 2023-yil 1-iyul holatiga ushbu ko'rsatkich 2022-yilning mos davriga nisbatan 6 foiz bandga kamayib, 110 foizni tashkil etdi.

¹ Марказий банк сайти маълумотлари асосида тузилди

Ushbu holat bank tizimining uzoq muddatli aktivlarni barqaror moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirish imkoniyatining biroz pasayganligini ko'rsatadi. Bank tizimi va Tijorat Aktivlarining Markaziy Bank (TAMB) uchun NSFR ko'rsatkichlari barcha banklarning 25 va 75 protsentil chegaralari bo'yicha tahlil qilinganda, ushbu ko'rsatkichlarning past 25 protsentil chegarasiga yaqin shakllangani kuzatilmoqda.



2-rasm. Tijorat banklari moliyaviy barqarorlik holati²

Bank tizimining moliyaviy barqarorlik holati xaritasida aktivlar o'sishining sekinlashishi va to'lovlari 31 kundan ortiq muddatga kechikkan aktivlar hajmining ortishi bilan bog'liq xatarlar bir oz ortganligi kuzatilmoqda. Jumladan, 2023-yilning dastlabki yarim yilligida bank aktivlarining o'sish sur'ati 2022-yilning mos davriga nisbatan 8 foiz bandga pasaygan.

Shuningdek, substandart va undan past tasniflangan muammoli kreditlar ulushi 2023-yil I yarim yillik yakunlariga ko'ra 2022-yilning mos davriga nisbatan 2 foiz bandga oshgan.

Milliy tijorat banklari faoliyatida aktivlar, ularning tarkibi, sifati, daromadliligi, likvidligi va dinamikasini tizimli o'rganib borish katta ahamiyatga ega. Bunda bank aktivlari tarkibi deganda balans yakuniga ko'ra turli sifatdagi aktivlar salmog'i tushuniladi. Bankning aktiv va majburiyatlarini risk, daromadlilik hamda likvidlik nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qilish esa maqsadga muvofiq bo'ladi.



3-rasm. Mamlakat bank tizimi bardoshliligi holati³

² Марказий банк сайти маълумотлари асосида тузилди

³ Марказий банк сайти маълумотлари асосида тузилди



Bank sektori bo'yicha kapital monandlik va likvidlik ko'rsatkichlarida kuzatilgan pasayish tendentsiyalari bank tizimining turli ehtimoliy shoklar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarga bardoshliligi holatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 2023-yil 1-iyul holatiga regulyativ kapitalning monandlik koeffitsienti 2022-yilning mos davriga nisbatan 0,6 foiz bandga kamaygan.

Shuningdek, banklarning likvidlik holatini aks ettiruvchi likvidlikni qoplash va sof barqaror moliyalashtirish koeffitsientlari ham pasaygan.

Bugungi kunda mamlakatimiz banklarida jismoniy shaxslarni kreditlash hajmi tez sur'atlarda ortib bormoqda. Bu holatning asosiy sabablari sifatida chakana kreditlash tartib-taomillarining nisbatan soddaligi va yuqori qiymatga ega ekani bilan izohlash mumkin.

Shu bois ko'plab banklar, xususan, xususiy banklar aholining daromadli qatlamlari istiqomat qilayotgan hududlarda tezkor xizmat ko'rsatish infratuzilmasini tashkil etish orqali raqobatda ustunlikka erishmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bank aktivlarini diversifikatsiya qilish darajasi ham aktivlarni samarali boshqarishga muhim ta'sir ko'rsatadi. Xususan, tijorat banklarida aktivlarni boshqarishda diversifikatsiyalash quyidagi afzalliklarga ega:


- bank aktivlari bo'yicha tavakkalchilik darajasini yanada pasaytirish;
- xorijiy valutarlar va plastik kartalar bilan operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha xizmat turlarini kengaytirish orqali daromadlar tarkibini diversifikatsiya qilish;
- bank uchun maqbul bo'lgan kreditlashning yangi turlari va shakllarini amaliyotga joriy etish;
- bank pasivlarini maksimal darajada daromad keltiruvchi aktivlarga joylashtirish imkoniyatini ta'minlash.

Tijorat banklari faoliyatida aktivlarni samarali joylashtirish strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirishni tizimli nazorat qilish, bank Kengashining rolini kuchaytirish hamda aktivlarni joylashtirishda oqilona va asosli qarorlar qabul qilish mexanizmini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, banklarning mustaqil rivojlanishi va resurslarni samarali boshqarishi uchun bank menejmenti sifatini oshirish zarurati ortib bormoqda. Bunga esa bevosita tijorat banklarida zamonaviy korporativ boshqaruv shaklini keng joriy qilish orqali erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020–2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020-y., 10.06.2022-y., 06/22/152/0507-son.
2. Jeyms K. Van Xorn, Jon M. Vaxovich. Asosiy moliyaviy menejment: [ingliz tilidan tarjima] – M.: Vilyams, 2016. – 1232 b.
3. Efimova O.V. Moliyaviy tahlil: 4-nashr, qayta ishlangan va to'ldirilgan. – M.: "Buxgalteriya hisobi" nashriyoti, 2002. – 528 b.
4. Kovalev V., Kovalev V. Korporativ moliya va hisob: tushunchalar, algoritmlar, ko'rsatkichlar. O'quv qo'llanma. – M.: PROSPEKT, 2015. – 1006 b.
5. Toshmatov Sh.X. O'zbekistonda bank tizimining shakllanishi va rivojlanishi. Doktorlik dissertatsiyasi. – T.: 2006. (16-bet).
6. Lavrushin O.I. Bank ishi: zamonaviy kredit tizimi: Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliyaviy akademiya. 4-nashr, stereotip. – M.: KNORUS, 2008. – B. 36–37.
7. Soklinskaya N.E. Zamonaviy sharoitlarda kredit portfelini boshqarish muammolari // Bank ishi. – Moskva, 1999. – №9. – B. 18–19.
8. www.worldbank.org rasmiy internet sayti ma'lumotlari.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100